

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

NAMYSSOV YERLAN DUMANOVICH

**INTERNET-FIRIBGARLIKLARNING KRIMINOLOGIK JIHATLARI VA
ULARNI OLDINI OLISH**

“12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi”

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)

Content of the abstract of the doctoral (PhD) dissertation

Namyssov Yerlan Dumanovich

Internet-firibgarliklarning kriminologik jihatleri va ularni oldini olish3

Намысов Ерлан Думанович

Криминалогические аспекты интернет-мошенничества и их предупреждение21

Namyssov Yerlan Dumanovich

Criminological aspects of internet fraud and their prevention.....41

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works 45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

NAMYSSOV YERLAN DUMANOVICH

**INTERNET-FIRIBGARLIKLARNING KRIMINOLOGIK JIHATLARI VA
ULARNI OLDINI OLISH**

“12.00.08 – Jinoyat huquqi. Kriminologiya. Jinoyat-ijroiya huquqi”

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyada B2024.1.PhD/Yu.1332 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida veb-sayti (www.mgjxu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor

Payziyev Dilshat Yuldashbayevich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.32/30.12.2020.Yu.74.01 raqamli ilmiy Kengashning 2024-yil 2-may kuni soat 15:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +998971 230-32-71; faks: +99871 230-32-50; mgjxu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100211, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chorsu qo‘rg‘oni. Tel.: +99871 230-32-71; faks: +99871 230-32-50).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil ___ aprelda tarqatildi.

(2024-yil ___ apreldagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

D.M.Mirazov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash
raisi o‘rinbosari, yu.f.d., professor

N.I.Xayriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash
ilmiy kotibi, yu.f.d., professor

M.B.Usmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yu.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda aholining raqamli makonga keng integratsiyalashuvi kuzatilib, raqamli texnologiyalar kundalik hayotda keng joriy etilishi, aholi tomonidan onlayn to'lovlardan keng foydalanilishi tobora kengayib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida jinoiy guruhlarning faollashuvini va raqamli muhit bilan bog'liq jinoyatlar sonining keskin ko'payishiga olib keldi. Internet-firibgarlik jinoyatlari jiddiy muammoga aylanib ulgurdi va dunyoning deyarli barcha mamlakatlarini qamrab olmoqda. So'nggi yillarda internet tarmoqlaridan foydalangan holda firibgarliklar soni sezilarli darajada oshganligini rasmiy statistik ma'lumotlar ham tasdiqlamoqda. «O'zbekiston Respublikasida 2018-yilda 6 483ta firibgarlik holatlari qayd etilgan bo'lsa, 2019-yilda – 6 321; 2020-yilda 10 496; 2021-yilda 24 554; 2022-yilda 20 591 ta firibgarlik qayd etilgan»¹. Shu bilan birga, «2018-yilning 12 oyida Qozog'iston Respublikasida 517 ta firibgarlik jinoyati qayd etilgan bo'lsa; 2019-yilda – 7 769; 2020-yilda – 14 155; 2021-yilda – 21 405; 2022-yilda – 20 569; 2023-yilda – 21 651tani tashkil etgan»². Bunda firibgarliklar umumiy sonining 10-15 foizi axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq holda sodir etilgan. Mazkur statistik ma'lumotlar hozirda internet-firibgarliklariga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi choralarni optimallashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatadi.

Jahonda internet axborot tarmog'i resurslaridan foydalangan holda firibgarlik harakatlarining tarqalishiga chek qo'yish, internet-firibgarliklarning kriminologik omillarini o'rganish va ularning oldini olish strategiyasini ishlab chiqish, firibgarlik operatsiyalarining ko'payishiga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalardan foydalanish kabi masalalari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida internet-firibgarlik turlarini tasniflash, internet-firibgarlik jinoyatlarini sodir etish mexanizmini fosh etish, aholining rivojlangan texnologiyalardan foydalanish madaniyati darajasini oshirish haqida xulosalar shakllantirilgan. Bu esa o'z navbatida internet-firibgarlik jinoyatlarini oldini olish usullarini takomillashtirish, raqamli jinoyatlarga qarshi samarali kurashish uchun huquqiy bazani mustahkamlash, jamiyatning axborot xavfsizligi darajasini oshirish va ularni oldini olish muammolari yuzasidan konseptual ilmiy tadqiqot o'tkazish zarurligini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasida oxirgi yillarda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarida keng qamrovli dasturiy tadbirlar³, shu jumladan, internet tarmog'i orqali sodir etilayotgan qonunbuzilishlarning oldini olish va uning samaradorligini oshirish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining rasmiy sayti \ Jinoyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan jinoyatlar soni // URL: <https://stat.uz>

² Сведения о зарегистрированных уголовных правонарушениях [Электронный ресурс] // Официальный сайт Комитета по правовой статистике и специальным учетам Генеральной прокуратуры Республики Казахстан. Информационный сервис. URL: <https://www.qamqor.gov.kz>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha bosqichma-bosqich zarur choralar ko'rilishi lozimligi belgilangan. Bu borada amaldagi jinoyat qonunchiligida internet-firibgarlik jinoyatlari sodir etilganligi uchun javobgarlik choralarning yetarli darajada belgilanmaganligi bilan birga mazkur jinoyatlarning oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning yetarli emasligi va bu borada hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjudligi internet-firibgarlik jinoyatlarga oid munosabatlarning kompleks tartibda tadqiq etish va rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 13-iyuldagi PF-5482-son «Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon hamda 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son «Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2020-yil 3-sentabrdagi PQ-4818-son «Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-avgustdagi 622-son «Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining virtual makonda ishtirokini faollashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» qarori va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar ijrosini amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Internet-firibgarliklarga qarshi kurashish uchun mavjud protseduralarni optimallashtirishga olimlarning diqqati markazida bo'lib kelayotgan dolzarb mavzulardan biridir. O'zbekiston Respublikasining taniqli olimlari, jumladan Q.R.Abdurasulova, R.S.Altiyev, A.U.Anorboyev, A.G.Zakirova, I.Ismoilov, A.K.Rasulyev, M.X.Rustambayev, A.B.Sabirbayeva, A.S.Tursunovlar jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy, tashkiliy va ilmiy-uslubiy yo'nalishlariga bag'ishlangan ilmiy asarlarida firibgarlikka qarshi kurashning jinoiy-huquqiy va kriminologik jihatlari, shu jumladan axborot-telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan ayrim masalalarni ilmiy tadqiq etganlar. Qozog'iston Respublikasi bo'yicha internet-firibgarliklar tushunchasi va tipologiyasini aniqlashga nazariy va huquqiy yondashuvlariga ta'sir ko'rsatadigan muammolarni I.Sh.Borchashvili, E.Kayirjanov, A.A.Komarov, N.A.Lopashenko, J.Yu.Saylibayeva, D.S.Saparbayev, M.Serikbolkizi, E.L.Sidorenko, V.V.Xilyutlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Qozog'iston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarda internet firibgarliklariga qarshi kurashning qiyosiy tahlili S.V.Asyamov, S.K.Bekmagambetov, N.V.Geynrix, R.F.Dadashov, A.M.Jorobekova, M.Dubko, O.N.Dunayeva, V.E.Kvashis, V.I.Mayorov, D.M.Mirazov, A.B.Musin, D.Sh.Nuriyev,

A.E.Pogogaylo, M.A.Prostoserdov, A.V.Susloparov, V.V.Xilyuta, K.J.Shalkibayev, G.F.Shipulin, A.S.Yakubovlar tomonidan amalga oshirilgan.

Internet-firibgarlikning kriminologik xususiyatlariga taalluqli masalalar Y.M.Antonyan, N.A.Vorobyova, N.V.Geynrix, O.N.Gusyeva, P.S.Dagel, R.I.Dremlyuga, V.E.Kvashis, O.A.Loginova, Yu.A.Merzlov, Yu.R.Orlova, V.A.Sabadash, G.M.Selyujitskaya, D.O.Teplova, R.M.Uzdenov, M.R.Yurkin kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Ularda olimlar Internet-firibgarlikning miqdoriy va sifat xususiyatlarini, Internet-firibgarlikni sodir etgan jinoyatchining shaxsini va jabrlanuvchining shaxsini, shuningdek Internet-firibgarlikning sodir etilishini belgilovchi omillarni tahlil qilingan.

Internet-firibgarlikning oldini olish sohasidagi kriminologik siyosati masalalari E.V.Akulova, A.Bashirov, V.F.Jafarli, A.J.Jetpisov, J.E.Jienbekov, K.O.Karabekov, A.K.Kiselyev, V.A.Kravchuk, G.N.Kunxojoyeva, G.A.Maystrenko, I.M.Maskevich, I.V.Ogurechko, V.P.Sabadash, G.S.Sapargaliyev, F.D.Frolov, T.A.Xanov, K.J.Shalkibayevlarning ilmiy tadqiqotlari mavzusi bo'lgan. Tadqiqotchilar o'z ishlarida internet-firibgarlikka qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining obyektlari va subyektlarini, shuningdek, internet-firibgarlikning oldini olishning umumijtimoiy va maxsus-kriminologik choralari ilmiy tadqiq etishgan¹.

Shunga qaramay, hozirgi kunga qadar internet-firibgarlikning kriminologik xususiyatlari va oldini olish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan, internet-firibgarlikning oldini olish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan qoidalar va kompleks tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, «Internet-firibgarliklarning kriminologik jihatlari va ularni oldini olish» mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi internet-firibgarlikning kriminologik jihatlari asosida ularning oldini olishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jinoyat qonunchiligi bo'yicha Internet firibgarliklari tushunchasi va tipologiyasini aniqlashga nazariy va qonunchilik yondashuvlarini ochib berish;

xorijiy mamlakatlarda internet-firibgarlikga qarshi kurashish qonunchiligi va tizimini qiyosiy tahlil qilish;

internet-firibgarlikning miqdoriy va sifat xususiyatlarini o'rganish va kengaytirish;

internet-firibgarlik sodir etgan jinoyatchi shaxsini va uning xususiyatlarini va jabrlanuvchining shaxsini tahlil qilish;

internet-firibgarlikni aniqlash omillarni belgilash va baholash;

internet-firibgarlikga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining obyektlari va subyektlarini tahlil qilish;

¹ Ushbu va boshqa olimlarning tadqiqot ishlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

internet-firibgarlikning oldini olishning umumijtimoiy va maxsus kriminologik choralari aniqlash, tahlil qilish asosida taklif va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida internet-firibgarliklar va ularni oldini olishning kriminologik choralari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini kriminologiyaning internet-firibgarliklar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarning mohiyati va mazmuni, shuningdek huquqni qo'llash amaliyoti, xalqaro tajriba, ularni oldini olish shakllari va usullari to'g'risidagi ilmiy qoidalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda bilishning ilmiy usullari bo'lgan – tarixiylik, mantiqiy-yuridik, formal, kuzatish, qiyosiy-huquqiy va tizimli tahlil, statistik usullar, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, anketa so'rovlari, statistik ma'lumotlar tahlili, funksional yondashuv, tizimlilik, surishtiruv-tergov amaliyoti hamda jinoyat ishlarini o'rganish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

axborot tizimlaridan foydalangan holda sodir etilgan internet-firibgarlikning joyi sifatida pul o'tkazayotgan jabrlanuvchining joylashgan joyini belgilash kerakligi asoslangan;

jabrlanuvchi pul mablag'lari va (yoki) shaxsiy ma'lumotlarni axborot tizimlaridan yuborgan payt internet-firibgarlik jinoyati sodir etilishi tamomlangan vaqt deb topish zarurligi asoslantirilgan;

internet-firibgarlikni oldini olishning xususiy kriminologik metodikasi mazkur kiberjinoyatlarning yangi shakllari va usullariga qarshi kurashishda internet-firibgarlik holati haqida xabar berish algoritmlarini qo'llash, fishingni aniqlash va kiberxavfsizlikni ta'minlash dasturiy ta'minotidan foydalanish usullari bilan takomillashtirilgan;

voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan internet-firibgarlik jinoyatlarini oldini olishda kuzatuv (nazorat) dasturlaridan foydalanish, "internetda hushyor bo'l" targ'ibot-tashviqot ishlarini kengaytirish, onlayn xavflardan ogohlantirish tizimi samara berishi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

internet firibgarliklarni oldini olish samaradorligini oshirish uchun o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish tartibini takomillashtirish va xorijiy davlatga huquqiy yordam ko'rsatish doirasida dalil sifatida foydalanish uchun olingan kompyuter ma'lumotlarini hujjatlashtirilgan shaklda tezkorlik bilan yetkazish muammosini hal qilish bo'yicha takliflar kiritilgan;

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 54-moddasi (Jinoiy javobgarlik va jazoni og'irlashtiradigan holatlar) "*aybdorga uning rasmiy mavqei yoki shartnoma tufayli, ilgari kasbiy faoliyat yoki mavjud bilimi bilan bog'liq ravishda bildirilgan ishonchni suiiste'mol qilgan holda, xuddi shuningdek, mavjud axborot va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda jinoyat sodir etish*" tahriridagi qo'shimcha band bilan to'ldirilishi taklif etilgan;

internet-firibgarlik sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik yoshini 14 yoshga tushirish bo'yicha takliflar asoslantirilgan;

internet-firibgarliklar bo'yicha tezkor va tergov qidiruv tizimini mustahkamlashga qaratilgan barcha mintaqalarda kunu-tun rejimida so'rovlar iloji boricha tezkor qayta ishlanishini ta'minlaydigan tezkor aloqa kanallarini yaratish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

axborot tarmog'i resurslaridan foydalangan holda sodir etilishi mumkin bo'lgan talon-torojning barcha shakllari (o'g'irlik, firibgarlik, o'zlashtirish yoki rastrata qilish, shuningdek tovlamachilik)ni bir xilda tushunilishi va hisobga olinishiga erishish maqsadida ularni yangi mustaqil jinoyat «*Axborot tarmog'idagi talon-toroj yoki tovlamachilik*» tarkibiga birlashtirish haqida taklif shakllantirilgan;

ushbu sohada tartibga soluvchi «*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan jinoiy maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish Milliy strategiyasi*»ni ishlab chiqish va qabul qilish bo'yicha takliflar shakllantirilgan;

IIO bo'linmalari uchun mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga kiberxavfsizlik asoslarini o'qitishni joriy etish, shu jumladan kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning texnik jihatlariga alohida e'tibor qaratish zarurligi to'g'risida takliflar shakllantirilgan.

Tadqiqotning ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda metodologiyadan foydalanilganligi, rasmiy manbalardan olingan nazariy yondashuvlar, xorijiy tajriba va amaldagi milliy qonunchilikni solishtirma tahlili amalga oshirilganligi, ish xulosalarining amaliyotga joriy etilganligi, Qozog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligining Barimbek Beysenov nomidagi Qarag'anda akademiyasining qo'shimcha ta'lim fakulteti negizida ichki ishlar organlarining 315 nafar xodimi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari va internet-firibgarlik faktlari bo'yicha jinoyat ishlari va sud hukmlarini o'rganish, shuningdek, davlat topshiriqlari, hisobotlari, baholari, tahlillari va boshqa hujjatlarni tahlili, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan onlayn firibgarlikka qarshi kurash bilan bog'liq tajribasi o'rganilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyaning xulosalari, takliflari va tavsiyalari kriminologiya va jinoyat huquqining nazariy bilimlarini boyitishi, shuningdek yangi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot davomida muallif tomonidan shakllantirilgan nazariy va amaliy xulosalarning huquqni muhofaza qilish organlarining kundalik faoliyatida, ularning kundalik xizmat vazifalarini bajarishda; internet-firibgarlikga qarshi kurashda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda; huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini tayyorlash jarayonida qo'llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot materiallari oliy yuridik ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida «Jinoyat huquqi», «Jinoyat protsessi», «Sud ekspertizasi», «Raqamli sud ekspertizasi», «Fuqarolik huquqi», «Informatika», «Axborot xavfsizligi asoslari», «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari», «Kompyuter ma'lumotlari sohasidagi firibgarlik jinoyatlarini tergov qilish xususiyatlari» fanlari bo'yicha ma'ruzalar va seminarlar o'tkazishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Internet-firibgarlikning kriminologik jihatlari va ularning oldini olish bo'yicha olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

axborot tizimlaridan foydalangan holda sodir etilgan internet-firibgarlikning joyi sifatida pul o'tkazayotgan jabrlanuvchining joylashgan joyi deb hisoblash to'g'risidagi taklif Qozog'iston Respublikasi Oliy sudining 2017-yil 29-iyundagi 6-son "Firibgarlik ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorining 8-bandining uchinchi xatboshisi bilan to'ldirishda foydalanilgan (*Qozog'iston Respublikasi sud ma'muriyatining 2024-yil 20-fevraldagi 6001-24-9-6/57-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning amalga oshirilishi internet-firibgarlik jinoyatlari bo'yicha sudga qadar ish yurituvi uchun mas'ul organni belgilashga, shuningdek, internet-firibgarlikdan jabrlangan shaxslarning huquqlarini kafolatlanishi darajasi oshirilishiga xizmat qilgan;

fuqarolarni huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va internet-firibgarlik jinoyatchiligiga qarshi kurashish holati to'g'risida xabardor qilish va huquqiy ta'lim berish to'g'risidagi taklif Qozog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2015-yil 29-dekabrda "Uchastka politsiya inspektorlari va ularning yordamchilarining faoliyatini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 1095-son buyrug'ining 25-bandining 3-kichik bandiga Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2023-yil 21-avgustdagi 652-son buyrug'i bilan o'zgartish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan (*Qozog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Ma'muriy politsiya qo'mitasining 2024-yil 19-martdagi 5-5-5-6-77/436-i-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning amalga oshirilishi fuqarolarning internetdagi firibgarlik jinoyatlari va ularni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida xabardorligini oshirishga, shuningdek, internet firibgarlik jinoyatlari soni darajasini pasaytirishga va huquqni muhofaza qilish organlarining samaradorligini oshirishga yordam bergan.

ichki ishlar organlarining boshqa davlat organlari va nodavlat tashkilotlari bilan yig'ilishlarida huquqbuzarliklar, shu jumladan voyaga yetmaganlar o'rtasida internet-firibgarliklarning oldini olish masalalari muhokama etilishi to'g'risidagi taklifdan Qozog'iston Respublikasi IIVning 2022-yil 18-avgustdagi 687-son buyrug'i bilan "Politsiya uchastka inspektorlari faoliyatini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2015-yil 29-dekabrda 1098-son buyrug'ining 23-bandi 11-bandiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan (*Qozog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Ma'muriy politsiya qo'mitasining 2024-yil 19-martdagi 5-5-5-6-77/436-i-son ma'lumotnomasi*). Ushbu taklifning joriy etilishi internet-firibgarliklarga qarshi kurashni, shu jumladan voyaga yetmaganlarni uning salbiy oqibatlaridan himoya qilish choralarni kuchaytirishga yordam bergan.

ta'lim tashkilotlari o'quvchilari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish maqsadida ularning huquqbuzarliklari va boshqa g'ayriijtimoiy harakatlarning sabablari va shartlarini aniqlash shartligi to'g'risidagi taklifdan taklifdan Qozog'iston Respublikasi IIVning 2022-yil 18-avgustdagi 687-son buyrug'i bilan "Politsiya uchastka inspektorlari faoliyatini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2015-yil 29-dekabrda 1098-son buyrug'ining 23-bandi 11-bandiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishda foydalanilgan (*Qozog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Ma'muriy politsiya qo'mitasining 2024-yil 19-martdagi 5-5-5-6-*

77/436-i-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha uchastka politsiyasi inspektorlarining internet-firibgarliklarni oldini olish bo'yicha faoliyatining samaradorligini oshirishga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shundan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta (shundan 4 ta xorijiy) jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiya hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Kriminologik tadqiqotlar obyekt sifatida internet-firibgarlik: milliy va xorijiy tajriba**»ga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda internet-firibgarlik tushunchasi, mohiyati va tipologiyasi tahlil qilingan, shuningdek, xorijiy mamlakatlarda internet-firibgarlikga qarshi qonunchiligi tizimi o'rganilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi «*Jinoyat qonunchiligi bo'yicha internet firibgarlik tushunchasi va tipologiyasini aniqlashga nazariy va qonunchilik yondashuvlari*» internet firibgarlik tushunchasini va uning nazariy va qonunchilik ta'riflarining mohiyatini ochib berishga, shuningdek, Qozog'iston Respublikasining amaldagi jinoyat qonunchiligi bo'yicha internet firibgarlik tipologiyasini aniqlashga bag'ishlangan.

Dissertantning fikricha, internet firibgarlik tarkibi elementlari va belgilarini jinoiy-huquqiy baholash nuqtai nazaridan, uni «oddiy» firibgarlikning tarkibini baholashdan unchalik farq qilmasligini tan olish kerak, zero ular yagona maqsadga qaratilgan bo'lsa-da, sodir etish usuli bilan farqlanadi. Ushbu umumiy o'ziga xos xususiyat tufayli individual elementlar va xususiyatlarni (subyekt, obyekt) talqin qilish jinoiy harakatni amalga oshirish mexanizmini virtualizatsiya qilishning aniq elementlari tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Internet-firibgarlikning mustaqil tabiati Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 190-moddasida

Yaqin xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish ham internet firibgarlik belgilarini jinoiy-huquqiy tartibga solishning turli amaliyotini ko'rsatgan. Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda bo'lgani kabi, asosan, «kompyuter firibgarligi» («kompyuterni aldash») jinoyat tarkiblari mavjud bo'lib, axborot tarmog'idan foydalangan holda firibgarlikdan iborat jinoyat tarkibi kam uchraydi (bunday variant faqat O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmanistonda bor). Umuman olganda, internet-firibgarlikka jinoiy-huquqiy baho berishga imkon beradigan tegishli tajovuzlar uchun javobgarlikning juda moslashuvchan tizimi Belarus jinoyat kodeksida keltirilgan bo'lib, unda sodir etilgan talon-torojning barcha turlarini bitta modda doirasida birlashtirilgan (shunga o'xshash amaliyot Armanistonda 2021-yil Jinoyat kodeksi kuchga kiringunga qadar bo'lgan).

Dissertatsiyaning «**Internet-firibgarliklarning kriminologik xususiyatlari**» ikkinchi bobida internet-firibgarlikning miqdoriy va sifat xususiyatlarini batafsil tahlili amalga oshirilgan, internet-firibgarlikni sodir etgan jinoyatchining shaxsi va mazkur jinoyat jabrlanuvchisining shaxsini tavsiflashning muhim elementlari aniqlandi, shuningdek internet-firibgarlik determinantlari tizimlashtirilgan.

Ushbu bobning «*Internet-firibgarlikning miqdoriy-sifat tavsifi*»ga bag'ishlangan birinchi paragrafida internet-firibgarlikning miqdoriy tavsifining eng muhim parametrlari aniqlangan:

1) firibgarlikning barcha turlari hajmida ham, talon-torojning barcha zo'ravonliksiz shakllari tarkibida ham yillik o'sishning juda yuqori ko'rsatkichlari;

2) har yili firibgarliklar natijasida yetkazilgan yuqori mulkiy zararining boshqa zo'ravonliksiz talon-toroj shakllariga nisbatan yuqori qiyosiy ko'rsatkichlari;

3) jinoyat natijasida yetkaziladigan mulkiy zararining asosiy ulushi, shuningdek sudga qadar ish yurituvi bosqichlarida qoplanadigan to'lovlarning asosiy hajmi jismoniy shaxslarga tegishli bo'lishi;

4) internet-firibgarlik jinoyatlarini ro'yxatdan o'tkazishda mintaqaviy nomutanosibliklar mavjudligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari dissertantga internet firibgarliklarni sifat jihatidan farqlash parametrlarini aniqlashga imkon bergan:

1) internet-firibgarliklarda ayollarning viktimlik indeksining boshqa jinoyat turlari viktimligi darajasiga nisbatan yaqqol yuqoriligi;

2) jabrlanuvchilarning eng katta hissasi 30-39 yoshdagi shaxslarga to'g'ri kelishi;

3) keksa yoshdagi shaxslar o'rtasida firibgarlikdan jabrlanganlar sonining mutlaq ko'rsatkichlarining sezilarli o'sganligi aniqlangan (bu esa o'z navbatida jinoiy javobgarlikni og'irlashtirish shaklidagi javob choralari kuchaytirilishini taqozo etadi).

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi «**Internet firibgarlik sodir etgan jinoyatchi shaxsi va jabrlanuvchining shaxsining tavsifi**» deb nomlangan bo'lib, unda internet-firibgarlik kontekstida «jinoyatchining shaxsi» va «jabrlanuvchi shaxsi» kategoriyalarining yuridik tavsifi yoritilgan.

Tadqiqot doirasida dissertant tomonidan o'tkazilgan tahlil internet-firibgarliklar umumiy doirasida voyaga yetmaganlar va ayollar jinoyatlari segmentiga nisbatan sezilarli qonuniyatlarni aniqlashga imkon bergan. Jumladan, firibgarlik qilmishlarini

sodir etishda voyaga yetmaganlarning ulushi mamlakatdagi voyaga yetmaganlarning umumiy jinoyatchilik darajasidan deyarli ikki barobariga past, buni ma'lum ijtimoiy aloqa ko'nikmalari, intuitiv psixologik tayyorgarlik va boshqalar talab qilinishi jinoyat nisbatan murakkab mexanizmga egaligi bilan izohlanishi mumkin. O'z navbatida, firibgarlik harakatlari doirasida jinoyatchilikning ayollar segmenti juda yuqori ko'rsatkichlarga ega va umumiy jinoyatchilik tarkibidagi «ayollarning ishtiroki»ning umumiy hajmidan 2,5-3 baravar ko'p, shu bilan birga, firibgarlik ayollar tomonidan sodir etilgan barcha jinoyatlarning o'rtacha 1/5 qismini tashkil qiladi. Bularning barchasi quyidagi omillar: qurbonlarning ayollarga nisbatan nisbatan katta ishonchi; mamlakatda ayollarning qiyosiy nisbiy muammolari tufayli moslashish ko'nikmalarining mavjudligi (shu jumladan, salbiy tomondan); jabrlanuvchiga va boshqa holatlarga jismoniy ta'sirni qo'llash zarurati yo'qligi va boshqalar bilan izohlanadi. Shu bilan birga, balog'at yoshida ayol jinsiga mos keladigan tegishli ijtimoiy yetuklikning yo'qligi voyaga yetmaganlar o'rtasida ayollarning firibgarligi ulushi sezilarli darajada past bo'lishiga olib kelgan.

Dissertant voyaga yetmaganlarning firibgarlik harakatlarining ahamiyatsiz ulushi bilan ular tegishli harakatlar jabrlanuvchisiga aylanish ehtimoli nisbatan kamligini aniqlangan. Aksincha, onlayn firibgarlikning umumiy hajmida ayollarning ishtirokining yuqori ulushi aynan shunday harakatlardan jabrlangan ayollar sonining ko'pligi bilan korrelyatsiya etadi. Shunga o'xshash korrelyatsiyalar jinoyatchilar va jabrlanuvchilarning fuqarolik mansubligi nuqtai nazaridan ham, yosh guruhlarida ham ko'rinadi. Shunday qilib, internet firibgarlik jinoyatchilari va jabrlanuvchilarining aksariyati ikki yosh guruhida – 21-29 yosh va 30-39 yosh guruhlarida jamlangan. Bunday holda, tegishli yosh guruhlarining maksimal jinoiy faolligi omili firibgarlar uchun «mulkiy jozibadorlik» omili bilan aniq bog'liqlikka ega, bu ham belgilangan yosh oralig'iga xosdir. Keksa odamlarga kelsak, tahlil qilinayotgan davrda (2018-2023) nisbatan past jinoiy faollik va jabrlanganlik darajasining o'xshash korrelyatsiyasi fonida, ushbu toifadagi shaxslarning jabrlanuvchiligining o'sishi tendensiyasi mavjud, bu esa tegishli qonuniy va huquqni muhofaza qilishga doir aks ta'sirni talab etadi.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi «*Internet firibgarliklar sodir etilishini belgilovchi omillar*» deb nomlangan bo'lib, umuman internet-firibgarlikning determinantlari, ushbu turdagi jinoyatchilikning alohida segmentlari, shuningdek ma'lum bir subyekt tomonidan jinoyat sodir etilishiga hissa qo'shadigan sabablar va shart-sharoitlar o'rganilgan.

Dissertant tomonidan tadqiqot doirasida internet firibgarlikning asosiy determinantlari ushbu jinoyatni sodir etish mexanizmi bilan bevosita bog'liqligi aniqlangan. Sodir etilishi jarayonida u yoki bu «xatolik» yuzaga kelishi mumkin bo'lgan an'anaviy firibgarlikdan farqli o'laroq, internet-firibgarlik doirasida aybdorlarning xavotiri darajasi sezilarli darajada kamroq bo'ladi. Axborot tizimlarining anonimligi internet firibgarliklarining keng miqyosda o'sishini tushuntiruvchi eng muhim determinantlardan biridir. Jinoiy faoliyatdan olinadigan potensial foyda va uni fosh bo'lib qolishi xavfi o'rtasida sezilarli nomutanosiblik mavjudligi, internet-firibgarliklarni aniqlash va qarshi kurashishda davlat huquqni

muhofaza qilish tizimining imkoniyatlariga nisbatan jinoyatchilarning imkoniyatlari sezilarli darajada ko'pligi bilan izohlanishi mumkin.

Tadqiqot davomida muallif huquqni muhofaza qilish organlarining internet-firibgarliklarga qarshi kurashish faoliyati samarali va o'z vaqtida bo'lmasa, bu ham internet-firibgarlik sodir etilishining qo'shimcha determinantiga aylanishi mumkin, degan xulosaga kelgan va bu jihatdan tan olish kerakki, salbiy omillar (xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy va moddiy himoyalash masalalaridagi muammolar) internet firibgarliklarning kuchayishiga va kriminogen vaziyatning yomonlashishi uchun qo'shimcha shart-sharoit yaratishi mumkin.

Tadqiqotning «**Internet-firibgarlikning oldini olish sohasidagi kriminologik siyosat**» deb nomlangan uchinchi bobida internet-firibgarlikga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati obyektlari va subyektlariga doir masalalarni ko'rib chiqishga, shuningdek, ijtimoiy va maxsus kriminologik choralar asosida internet firibgarliklarga qarshi kurashning tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratishga bag'ishlangan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida «*Internet-firibgarlikka qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining obyektlari va subyektlari*» deb nomlangan bo'lib, unda internet-firibgarliklariga qarshi kurashish jarayonida ishtirok etadigan davlat siyosati subyektlari va obyektlarining turlari, mohiyati va ahamiyati ko'rib chiqilgan.

Dissertant hozirgi vaqtda davlat, xalqaro hamjamiyat, iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlari, korxonalar va jismoniy shaxslar uchun axborot xavfsizligining ahamiyati tobora ortib borayotganligini ta'kidlaydi. Bu qisman jamiyatning tezkorlik bilan globallashtiruviga bog'liq. Axborot iqtisodiy kategoriyaga aylanib, bozorning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri, eng yangi texnologiyalarni joriy etish va keng qo'llash bilan bog'liq omilni tashkil etmoqda. Axborotning ta'siri bir lahzalik emas, balki uzoq muddatli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Zamonaviy sivilizatsiyaning turmush tarzi tobora ko'proq axborot resurslarining globallashtiruviga ta'siri ostida shakllanmoqda. Natijada, zamonaviy dunyoda axborot bilan bog'liq muhim muammolar yuzaga keladi, bu esa bo'linishning turli sohalarida axborot xavfsizligini tartibga solish va ta'minlash zarurligini keltirib chiqaradi.

Internet-firibgarlikka qarshi kurashish sohasida dissertant tomonidan olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, davlat siyosati moliyaviy vositalar va axborot tizimlarini muntazam ish jarayonida himoya qilishga, shuningdek axborot va ma'lumotlarni himoya qilishga qaratilgan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, hozirda tadqiqot mavzusiga kiradigan ko'plab obyektlar mavjud bo'lib, ushbu umumlashtirilgan elementlarni tizimlashtirish va ularni tartibga solish uchun dissertant axborot tizimlari va ma'lumotlarini, moliyaviy vositalar va bank operatsiyalarini, fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining obyekti sifatida ajratib ko'rsatish zarurligini ta'kidlaydi.

Internet-firibgarlikka qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining subyektlari sifatida qonun chiqaruvchi organlar; davlat hokimiyatining ijro etuvchi organlari; xalqaro hamjamiyat va xalqaro tashkilotlar; barcha mulk shaklidagi yuridik shaxslar, shu jumladan banklar, to'lov kompaniyalari, internet-provayderlar; ta'lim tashkilotlari; jismoniy shaxslar tasniflangan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi «*Internet firibgarlikni oldini olishning umumijtimoiy va maxsus-kriminologik choralari*» deb nomlangan bo‘lib, unda umumijtimoiy va maxsus-kriminologik choralar asosida internet-firibgarlikga qarshi kurashning tashkiliy-huquqiy mexanizmi ishlab chiqilgan.

Muallif internet-firibgarliklarni oldini olishning umumijtimoiy va maxsus-kriminologik chora-tadbirlari to‘g‘risidagi masalalarga to‘xtalib, tahlil qilinayotgan jinoyatlardan nafaqat davlatlar (hukumatlar), yirik korporatsiyalar va boshqalar, balki fuqarolar ham zaif ekanligini tushunish kerak, degan nuqtai nazarni asoslagan. Shu bilan birga, axborot tarmoqlarida fuqarolarning axborot tarmoqlarida hatti-harakatlarining, shu jumladan xavfsizlik masalalari bilan bog‘liq harakatlarining aniq tartibini belgilovchi normativ-huquqiy mexanizmlar mavjud emasligi ta‘kidlangan.

Dissertant tomonidan o‘tkazilgan tahlil natijalari internet-firibgarlikning oldini olish uchun umumijtimoiy va maxsus kriminologik choralar sifatida ajratish mumkin degan xulosaga kelishga imkon bergan: *Birinchidan*, umumijtimoiy chora-tadbirlar o‘z ichiga ta‘lim va axborot savodxonligini oshirishni, ta‘lim muassasalari va ixtisoslashtirilgan jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni, xalqaro hamkorlikni, jinoiy huquqbuzarlik jabrlanuvchilarini psixologik jihatlarini va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarni olishi kerak. *Ikkinchidan*, maxsus kriminologik chora-tadbirlar o‘z ichiga normativ-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish (javobgarlikni belgilash, vakolatli subyektlar faoliyatini tartibga solish); huquqni muhofaza qilish va maxsus organlar jihozlarining texnik tarkibiy qismini kuchaytirish; fuqarolarning shaxsiy ma‘lumotlari va moliyasini himoya qilishga qaratilgan moliya sektoriga yangi zamonaviy innovatsion mahsulotlarni joriy etish kabilarni oladi.

Dissertatsiya doirasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar yuqoridagi fikrlarni tasdiqlagan. Jumladan, respondentlarning 84,4 foizining tezkor pul topish va moliyaviy muammolarni yechishga intilish internet-firibgarlikning asosiy sabablari bo‘lib, bu mazkur jinoyatning moliyaviy motivlarining ahamiyatini ko‘rsatadi. Respondentlarning 76,5 foizi noqonuniy faoliyatdan pul foyda olish istagini firibgarlikning yana bir sababi sifatida ko‘rsatgan. Respondentlarning 70,8 foizi kerakli ma‘lumotlar va texnologik vositalar erkin muomalada va bepul bo‘lgan vaziyatda internet-firibgarlik jinoyati sodir etilishining qilish ehtimoli ko‘payishini ta‘kidlashgan. Respondentlarning 23%dan ortig‘i internetda axloq-odob qoidalari o‘rnatilmaganligi internet-firibgarlikka shart-sharoit yaratishi mumkinligini aytgan. Bunda axloqiy cheklovlar yo‘q, shuning uchun ba‘zi odamlar internetda jinoyat sodir etishlari mumkin. Respondentlarning 22 foiziga ko‘ra, internet-firibgarlikning sodir etilishiga sabab – ijtimoiy e‘tirofga bo‘lgan ehtiyoj yoki pastlik kompleksi bo‘lishi mumkin.

XULOSA

Internet-firibgarlikning kriminologik jihatlarini har tomonlama o‘rganish va ularning oldini olishni tadqiq etish natijasida quyidagi nazariy, amaliy-tashkiliy va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy sharhlarida va huquqni qo‘llash

amaliyotida yuzaga keladigan internet firibgarlik tushunchasining kengaytirilgan talqin etilishiga hojat yo'q. Har bir alohida holatda, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish haqiqatdan ham, aniq ravishda axborot tarmog'ida sodir bo'lganligi aniqlanishi kerak. Firibgarlar mobil aloqadan foydalanadigan barcha holatlarni internet firibgarlik sifatida tan olinishi xatolikdir.

2. Internet firibgarlik tarkibi elementlari va belgilarini jinoiy-huquqiy baholash nuqtai nazaridan, uni «oddiy» firibgarlikning tarkibini baholashdan unchalik farq qilmasligini tan olish kerak, zero ular yagona maqsadga qaratilgan bo'lsa-da, sodir etish usuli bilan farqlanadi. Ushbu umumiy o'ziga xos xususiyat tufayli individual elementlar va xususiyatlarni (subyekt, obyekt) talqin qilish jinoiy harakatni amalga oshirish mexanizmini virtualizatsiya qilishning aniq elementlari tufayli o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Internet-firibgarlikning mustaqil tabiati Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksining 190-moddasida belgilangan javobgarlik mezonlarini o'rganishni talab qiladigan kriminologik amaliyot bilan bog'liq.

